



SPECIFIC FEATURES OF THE DISTINCTION BETWEEN CONTRACTS AND AGREEMENTS

Muharram Foziljanovna Normatova

Lecturer at NamSU

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Agreement, contract, civil law, action, agreement, legal consequence, result, normative legal act.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: This article highlights the specific aspects of the distinction between agreements and contracts, and shows that agreements arise as a result of actions aimed at establishing, changing and canceling civil rights and obligations between individuals, their legal status is considered one of the main institutions of civil law, private law, and their specific aspects are highlighted based on legal sources. In addition, the fact that an agreement is distinguished from other legal facts by the fact that it creates a certain legal consequence and achieves a legal result through it is highlighted with examples.

BITIM VA SHARTNOMALARNI FARQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Muharram Foziljanovna Normatova

NamDU o'qituvchisi

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Bitim, shartnomma, fuqarolik huquqi, harakat, kelishuv, huquqiy oqibat, natija, normativ-huquqiy hujjat.

Annotatsiya: Mazkur maqlolada bitim va shartnomalarni farqlashning o'ziga xos jihatlari yoritilib, bitimlar shaxslar o'rtasidagi fuqarolik huquq va burchlarni belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlar natijasida yuzaga kelishini, ularning huquqiy maqomi fuqarolik huquqi, xususiy huquqning asosiy institutlaridan biri hisoblanishi hamda uning o'ziga xos jihatlari huquqiy manbalarga asoslangan holda yoritilgan. Shuningdek, bitim boshqa yuridik faktlardan muayyan bir huquqiy oqibat tug'dirishi, uning vositasida huquqiy natijaga

erishilishi bilan farqlanashi misollar bilan yoritilgan.

ОСОБЕННОСТИ РАЗГРАНИЧЕНИЯ СОГЛАШЕНИЙ И ДОГОВОРОВ

Мухаррам Фозильжановна Норматова

Преподаватель НамГУ

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Соглашение, договор, гражданское право, действие, соглашение, правовые последствия, результат, нормативный правовой акт.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности разграничения договоров и контрактов. Уточняется, что договоры возникают в результате действий, направленных на установление, изменение и прекращение гражданских прав и обязанностей между лицами, их правовой статус рассматривается как один из основных институтов гражданского права, частного права, а также раскрываются их особенности на основе источников права. Кроме того, на примерах показано, что договор отличается от других юридических фактов тем, что он порождает определённые правовые последствия и достигает посредством этого юридического результата.

Kirish.

Bugungi kunda fuqarolar o‘rtasida huquqiy munosabatlarga kirishish va buning natijasida muayyan huquq va majburiyatlar vujudga kelayotganligi, ayrim hollarda, bunday huquq va majburiyatlarning yuzaga kelishida asos bo‘lgan bitim va shartnomalar mazmun mohiyatini to‘la anglamaslik turli xil huquqiy oqibatlarga sabab bo‘lmoqda. Maqolada bitim va shartnomalarni farqlash hamda huquqiy munosabatlarga kirishishda ularning yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan huquqiy oqibatlar yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Mazkur maqolani yozishda manbalarni huquqiy normativ hujjatlar, kodekslar hamda huquqiy adabiyotlardan foydalanildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, X. Rexmanqulovning Grajdanskoe pravo, I.B. Zokirovning Fuqarolik huquqi, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda internet manbalaridan foydalanildi. Mavzuni ochib berishda qiyosiy-tahlil, manbalar tahlili metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har bir shaxsning mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi belgilab qo‘yilgan[1:27]. Tabiiyki, fuqarolar bitim va shartnomalarni tuzish yo‘li bilan ham mulkdor bo‘ladilar. Normativ hujjatlar asosida yuzaga kelgan fuqarolik huquqiy munosabatlarning huquqiy oqibatlari mulkdor manfaatlari yo‘lida xizmat qilishi uchun mazkur hujjatlarning mohiyatini va mazmunini tushunish zarur. Bunday natijalar uchun fuqarolik huquqida bitim va shartnomalarni farqlashda ularning uziga xos jihatlarini tushuntirish muhim hisoblanadi. “Bitimlar shaxslar o‘rtasidagi fuqarolik huquq va burchlarni belgilash, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlar natijasida yuzaga keladi”-deya ta’rif berilgan[2:48]. Qolaversa bitimlarning huquqiy maqomi fuqarolik huquqi, xususiy huquqning asosiy institutlaridan biri hisoblanib, uning o‘ziga xos jihatlari mavjud:

- bitim shaxslarning erki-irodasi bilan bog‘liq bo‘ladi;
- ma’lum bir huquqiy oqibat tug‘dirishga qaratiladi;
- muayyan shaklda izhor etiladi.

Bitimlarni tuzuvchilar fuqarolik huquqining sub’ekti bo‘lib, ularda:

- bitimni tuzish erkining mavjudligi va bu erk huquqiy oqibatlar tug‘dirishga qaratiladi;
- ma’lum shaklda izhor qilinganligi bitim deb baholashga sabab bo‘ladi[3:71].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (FK) 101-moddasiga ko‘ra, bitimlar deb, fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlarga aytiladi[4:98].

Bitim va shartnoma o‘rtasida muayyan bir farqlar mavjud. Bitim to‘g‘risida FKning 101-moddasida berilgan ta’rifda u bitim tuzuvchilarning harakatlaridan iborat ekanligi belgilangan. Shartnoma esa FKning 353-moddasiga asosan ikki yoki bir necha shaxsning kelishuvi natijasida yuzaga keladi. Demak, shartnoma va bitim o‘rtasidagi farqlardan biri shundaki, bitim harakatdan kelib chiqsa, shartnomada ushbu harakatning o‘zi kifoya bo‘lmay, ikki yoki undan ortiq shaxsning kelishuvi ham talab etiladi. Bitim boshqa yuridik faktlardan muayyan bir huquqiy oqibat tug‘dirishi, uning vositasida huquqiy natijaga erishilishi bilan farqlanadi va shu sababdan bitimni «erk bayonnomasi», deb ham atash mumkin. Davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ham muayyan huquqiy oqibat, natija keltiruvchi hujjatlar qabul qiladi, lekin ularda aynan erk muxtoriyati - ishtirok etuvchilarning umumiyligi xohish-irodasi mavjud emas va ularga nisbatan bitimlar to‘g‘risidagi umumiyligi qoidalar qo‘llanilmaydi.

M.V.Krotovning fikricha, bitimning mazmunini quyidagi belgilar tashkil etadi:

1. Bitim — erk-irodani ifodalovchi hujjat;
2. Bitim haqiqiy harakat natijasida yuzaga keladi;
3. Bitim fuqarolik — huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilishga maxsus yo‘naltirilgan bo‘ladi;

4.Bitim fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinuvchi huquqiy munosabatni yuzaga keltiradi[3:98].

Bitimlar erkning ifodalanishiga qarab bir, ikki yoki ko‘p tomonlama bitimlarga bo‘linadi, muqobil ijroning bo‘lish-bo‘lmasligiga qarab, haq baravariga va tekinga tuziladigan bitimlarga, qay paytdan e’tiboran tuzilgan, deb hisoblanishiga qarab esa konsensual va real bitimlarga bo‘linadi. Bir tomonlama bitimdan faqat bir tomonninggina erki ifodalanadi, huquq va majburiyat faqat bir tomonning irodasi bo‘yichagina vujudga keladi, o‘zgaradi yoki bekor bo‘ladi. Vasiyat, merosdan voz kechish, ishonch qog‘ozi berish, vakolat olmasdan vakillik qilgan shaxsning harakatlarini vakolat beruvchi ma’qullashini bir tomonlama bitimlarga misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi. Bir tomonlama bitim uni tuzgan shaxs uchun majburiyatlar keltirib chiqaradi. Ikki tomonlama bitimlar har ikki tomonning erkiga muvofiq tuziladi. Bunday bitimlar – shartnomalar bo‘lib ularga misol sifatida oldi-sotdi, mulk ijarasi, sug‘urta va boshqa shartnomalarni kiritish mumkin. Ko‘p tomonlama bitimlarda uch va undan ortiq shaxslarning erklari ifodalanadi va ularga oddiy shirkat (birgalikdagi faoliyat) shartnomasi misol bo‘ladi. Ko‘p tomonlama bitimlar ham ikki tomonlama bitimlar singari o‘zaro kelishuvlar, ya’ni shartnomalardir. Haq baravariga tuziladigan bitimlar bo‘yicha tomonlardan har biri qarshi tomon foydasiga muayyan bir mulkni topshirish, pul to‘lash, ishni bajarish, biron ta xizmat ko‘rsatish singari harakatlami qilish majburiyatini oladi. Haq baravariga tuziladigan bitimlarga qarshi (muqobil) ijro nazarda tutiladigan bitimlar oldi-sotdi, ayrboshlash, pudrat, sug‘urta kabi bir qancha shartnomalardir, chunki ularda tomonlardan har biri qarshi tomon faoydasiga biron ta harakat qiladi. Masalan: ayrboshlovchi ayrboshlanayotgan mulk evaziga ma’lum mulkni ayrboshlashdi. Hadya, foizsiz qarz, mulkdan tekin foydalanish (ssuda) to‘g‘risidagi shartnomalarni tekinga tuziladigan bitimlarga misol qilish mumkin. Bunday bitimlarda tomonlardan birigina ikkinchi tomon foydasiga biron-bir harakat qilish majburiyatini oladi. Bu yerda qarshi (muqobil) ijro yo‘q[3:20]. Bitimlar qay paytdan e’tiboran tuzilgan deb hisoblanishiga ko‘ra konsensual va real bitimlarga bo‘linadi. Konsensual bitim deb huquq va majburiyatami o‘zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytda vujudga keltira digan bitimga aytaladi. Mulk ijarasi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, kontraktatsiya singari shartnomalar konsensual bitim hisoblanadi. Real bitim deb o‘zaro kelishuvga muvofiq ashyolar yoki pulni top shirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitimga aytiladi. Real bitimlarga qarz, omonat, yuk tashish shartnomalarini misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi. Huquq subektlari o‘rtasida tuziladigan bitimlar muayyan muddat larda ijro etiladi va bekor bo‘ladi. Agar bitimda huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi yoki bekor bo‘lishi vaqtin qarshilagan bo‘lsa, bitimlar muddatli hisoblanadi. Bitimlarda muddatlar quyidagicha:

- a) ma’lum kun, oy, yil bilan (masalan, 2022- yil 24 sentyabr);

b) ma'lum vaqtning o'tishi bilan (masalan, bir yarim yildan keyin o'tishini ko'rsatish); v) ma'lum bir voqea yuz berishi (masalan, daiyo orqali yuk tashish - muz erishi bilan) bilan belgilanadi.

Agar bitimda uning ijro etilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday bitim muddasiz hisoblanadi. FK, 242-moddada ko'rsatilganidek, agar majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan yoki talab qilib olish payti belgilab qo'yilgan bo'lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarz dor esa ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo'ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnomaga yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarz dor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kunidan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart. Shartli bitim deb taraflar o'rtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor bo'lishi, biron-bir shartga bog'lab qo'yilishiga aytiladi. Bitimlar uchun mezon- erk-iordaning ifodalinish bo'lib, bir tomonning erki bilan vujudga kelishi mumkin. Shartnomalar uchun mezon huquq va majburiatlarda ifodalansada, bir tomonning erki kifoya qilmaydi va albatta kelishuv bo'lishi talab etiladi[5:74]. Shartnomalarga ham FKning 9-bobida nazarda tutilgan ikki va ko'p taraflama bitimlar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi (FK 353-moddasining ikkinchi qismi). Ushbu normada shartnomaga va bitim o'rtasidagi nisbat berilgan. Ushbu nisbat qadimgi Rim tsivilistlarining «har qanday shartnomaga bitimdir, biroq har qanday bitim shartnomaga emas», degan qarashida yaqqol ifodalangan. Bitimlar doirasi shartnomaga doirasiga nisbatan kengroqdir. Bir taraflama bitimlar hech qachon shartnomaga hisoblanmaydi. Ayni vaqtda ikki va undan ortiq taraflar erki-irodasi bir yo'naliш bo'yicha ketgan, bir ob'ektga yo'naltirilgan bo'lmasa (masalan, er-xotin vasiyatnomasi), shartnomaga tusini oladi. Bitim — bu harakat. Agar bir necha sub'ektlar harakatlari muayyan doirada uchrashsa (to'qnashsa emas) va o'zaro kelishuv tusini olsa, u shartnomaga shakliga kiradi. Ko'p tomonlama bitimlarni shartnomaga sifatida e'tirof etish fuqarolik-huquqiy tartibga solishni soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega. I.B.Zokirovning fikricha, bitim atamasi uch ma'noda: yuridik fakt; biron-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy yoki nomoddiy manfaatlar to'g'risidagi huquqiy munosabat; shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) nima to'g'risida o'zaro kelishsalar, shuni aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma'nosida ishlataladi. Bitimlar uchun quyidagi shartlarning bo'lishi muhimdir:

- a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining sub'ekti hisoblanishi;
- b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish erki bo'lishi va bu erk ma'lum huquqiy oqibatlar tug'dirishga qaratilgan bo'lishi;
- v) shaxsning erki muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o'zining tashqi ifodasini topishi, ya'ni ma'lum shaklda izhor qilingan bo'lishi kerak[3:119] .

Bitimni turkumlash jarayonida bir bitimning turli jihatlari e'tiborga olinadi. Bunda erkning ifodalanishi, muqobil ijob hamda tuzilgan muddati va boshqa omillar asos qilib olinadi. Bir turga mansub bitimning xususiyati boshqa turkumga xos jihatni ham qamrab olishi mumkin. Masalan, mulk ijerasi shartnomasi konsensual xarakterni o'zida ifoda etadigan, haq baravariga tuziladigan ikki tomonlama bitim hisoblanadi. Mulk ijerasining huquqiy belgilari xususida to'xtalganda, undagi taraflar erkining ifodalanishi, muqobil ijroning mavjudligi va bitimning yuridik kuchga kirish muddatiga e'tibor qilinmoqda[2:219].

Xulosa

Bitim shartnomalardan yoki boshqa yuridik faktlardan muayyan bir huquqiy oqibat tug'dirishi, uning vositasida huquqiy natijaga erishilishi bilan farqlanadi va shu sababdan bitimni «erk bayonnomasi», deb ham atash mumkin. Davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham muayyan huquqiy oqibat, natija keltiruvchi hujjatlar qabul qiladi, lekin ularda aynan erk muxtoriyati - ishtirok etuvchilarning umumiyligi xohish-irodasi mavjud emas va ularga nisbatan bitimlar to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llanilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. 2023 y.
- 2.Рахманкулов Х. Гражданское право. Учебник-Т.: ТГЮИ.-С.438.
3. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. - T., TDYUI.- B.173
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (2021-yil 1-martgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
- 5.O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz (rasmiy manba) asosida. Toshkent." Yuridik adabiyotlar publish" 2021 5. http://arxiv.uz/ru/documents/.
6. <http://lex.uz/docs/-104720>
7. <http://www.osce.org/files/f/.documents/>
- 8 <http://lex.uz/docs/-2414102>.
- 9.<http://hozir.org/loyiha-toshkent-davkat-yuridik-universiteti-v6.p-100>.